

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI LOYIHALARINI STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)

Berdiyev Mansur Alisherovich

Bank Moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11659948>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari loyihalarini strategic boshqaruv tizimini shakllantirish xususida mulohazalar berilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqaruv tizimidagi o‘rni va roli alohida tilga olingan. Aksiyadorlik jamiyatlarining yagona tizim yaratishdagi o‘rni aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:** aksiyadorlik, firma, kompaniya, liberallashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari, buyruqbozlik.*

FORMATION OF STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF PROJECTS OF JOINT STOCK SOCIETIES

(In the case of JSC "Uzbekistan Railways")

***Abstract.** This article provides comments on the formation of a strategic management system for projects of joint-stock companies. The place and role of joint-stock companies in the management system is mentioned separately. The role of joint-stock companies in the creation of a unified system was determined.*

***Key words:** joint stock, firm, company, liberalization, joint stock companies, command.*

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ (В случае АО «Узбекские железные дороги»)

***Аннотация.** В данной статье приведены комментарии по вопросам формирования системы стратегического управления проектами акционерных обществ. Отдельно упомянуто место и роль акционерных обществ в системе управления. Определена роль акционерных обществ в создании единой системы.*

***Ключевые слова:** акционерное общество, фирма, компания, либерализация, акционерные общества, команда.*

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, iqtisodiyot, jumladan temir yo‘l transport tizimini rivojlanishini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xo‘jalik boshqaruv organlari, firma va kompaniyalarning munosib faoliyat olib borishlari, tadbirkorlarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘rinishini va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan, milliy iqtisodiyot, jumladan temir yo'l transporti sohasining raqobatbardoshligini oshirish, transport infratuzilmasini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari, xususan temir yo'l transporti sohasiga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish bo'yicha kompleks loyihalarni amalga oshirish strategiyadan o'rin egallagan.

Strategik boshqaruv nazariyasining rivojlanishining ikkinchi bosqichi sifatida, odatda 1970-yillarning o'rtalaridan 1980-yillargacha bo'lgan davr nazarda tutiladi. Bu davrda strategiya nazariyasining akademik infratuzilmasi jadal sur'atlar bilan shakllandi. Shuningdek bu davrda oldingi bosqichda farqli o'laroq kompaniyalar faoliyatini rejalashtirish emas, balki ularni tegishli bozorlarda o'z o'rnini egallashi muxim masala sifatida ilgari surildi va keng tadqiq etildi.

Mamlakatimizda temir yo'l tizimini isloh etishga qaratilgan bir nechta loyihalar ilgari surilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 2-martdagi "Temir yo'l transportini monopoliyadan chiqarish va aksiyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-2815-son Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Temir yo'l transportini monopoliyadan chiqarish va aksiyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2001 yil 2 martdagi PF-2815-son Farmonini bajarish yuzasidan va «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining boshqaruv tizimini takomillashtirish, temir yo'l transporti korxonalarini va tashkilotlarini xususiyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, tarmoq korxonalarini rivojlantirish, texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish uchun investisiyalar, shu jumladan xorijiy investisiyalarni jalb etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 3 martdagi 108-son Qarori qabul qilindi va sohada bir qancha ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tizimida yo'lovchilarni tashish bo'yicha «O'ztemiryo'lyo'lovchi», yuklarni konteynerlarda tashish bo'yicha «O'ztemiryo'lkonteyner» va refrijerator vagonlarida tashish bo'yicha «Yo'lvreftrans», yo'lovchi tashish vagonlari va yuk vagonlarini ta'mirlash korxonalarini aksiyalashtirildi. Yuk va yo'lovchilar tashish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi davlat ulushlari to'liq sotildi.

Temir yo'l transportini boshqarishda funksional va hududiy yondashuvlarning o'zaro yaqin aloqasini ta'minlaydigan mintaqaviy temir yo'l uzellari barpo etildi. Harakatdagi tarkib ta'minoti, uni ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish tizimi takomillashtirildi va uning bazasi mustahkamlandi.

Ammo, bugungi kunda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan islohotlar tizimni monopoliyadan chiqarish bo'yicha navbatdagi turkum loyihalar dasturi va portfelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Strategik boshqaruv nazariyasining 1990-yillardan boshlangan uchinchi davri strategik boshqaruv nazariyasi asosidagi tadqiqotlarga boyligi bilan ifodalanadi va bunda strategik boshqaruvning resurs bazasi shakllangan davr sifatida talqin qilinadi.

Kompaniya tashqi muxitini tahlil qilganda tahlilning turli toifalarini qo'llash mumkin.

Jumladan:

- 1.Solishtirma tahlil usuli;
- 2.Omillar tahlili usuli;
- 3.Guruxlashtirish usuli;
- 4.Grafik usullar;
- 5.Funksional-qiymatlar usuli;
- 6.Marjinal tahlil uchisuli;
- 7.Evristik usullar;
- 8.Chiziqli-dasturlash usullari.

Shuni ta'kidlash joizki, tashqi muhitni tahlil qilganda yuqorida qayd etilgan an'anaviy usullardan tashqari M.Porterning raqobatbardoshlik tahlili usulini, Kontr-konkurent usulini, Xal etuvchi omil tahlili usulini qo'llash mumkin. Ammo, tashqi muxitni PEST usuli asosida tahlil qilish albatta amalga oshirilishi lozim. Bunda tashqi muxitdagi tizimlarning kompaniya bilan munosabatlaridagi mavjud va ishga solinmagan barcha omillari PEST-tahlilning barcha tarkibiy me'zonlari bo'yicha, ya'ni omillarning R - siyosiy, E - iqtisodiy, S - ijtimoiy va T -texnologik jixatlari bo'yicha tahlil etib chiqiladi. Bunda PEST tahlil usulini amalga oshirishning asosiy bosqichlari xisoblangan quyidagi:

- mezon tizimni asosiy ko'rsatgichlariga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash;
- aniqlangan xar bir omilning tavsifi va rivojlanish dinamikasiga oid ma'lumotlar to'plash
- ma'lumotlarni hamda xar bir omilning axamiyati va ta'sir darajasini tahlil qilib chiqish
- PEST tahlil natijalarini bitta yig'ma jadvalga jamlash vazifalarining xar biri alohida, qunt bilan amalga oshirilishi joiz.

Ma'lumotlar "Tashqi muhit omillari", "Strategiyani elementlarini o'zgartirish yo'nalishlari va tendensiyalari", "Strategiya elementlari – omillari ta'sir etuvchi ob'ektlar", hamda "Ta'sir oqibati va o'zgarishlar tavsifi" deb nomlangan ustunlardan iborat PEST tahlil natijalarini yig'ma jadvaliga yig'ib, uning asosida tashqi muxit ob'ektlariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish xarakterli strategiyasining alohida ustuvor yo'nalishi sifatida qayd etilgan.

Farmon bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiyasi tashkil etilgan. Shunisi e‘tiborliki, harakatlar strategiyasini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish barcha davlat va ho‘jalik boshqaruv organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining birlamchi vazifasi va bosh ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Shuningdek, farmonda harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar zimmasiga Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish, shuningdek Harakatlar strategiyasini 2018 - 2021 yillarda amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash vazifasi yuklatilgan.

Mamlakatimiz temir yo‘l transporti tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan islohotlarning navbatdagisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi VMQ-366 son qarori asosida amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori temir yo‘l transporti tizimi korxonalarini xususiylashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining mantiqiy yakuniga etkazish ishlarini jadallashtirishga xizmat qildi.

2011-yildan boshlab, temir yo‘lda tashish xavfsizligini ta‘minlash, temir yo‘l vokzallarida (stansiyalarida) yo‘lovchilar va boshqa shaxslarni, qo‘l yukini, bagajni ko‘zdan kechirish, yo‘lovchilar va boshqa shaxslarning temir yo‘l vokzallarida (stansiyalarida) bo‘lishi qoidalari, yo‘lovchilar tashish poezdlarida tashish taqiqlangan va cheklangan xavfli moddalar va buyumlarga oid, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish loyihalari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 19-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan temir yo‘l transporti sohasida ruxsat berish tartibotlaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi” VMQ-310 son qarori soxadagi xizmat ko‘rsatish soxasini son jixatidan sifat darajasiga ko‘tarilishiga olib keladigan me‘yoriy-huquqiy hujjat bo‘ldi deb atash mumkin.

REFERENCES

1. Соколовский Д.Л. Речной сток. – Л.: Гидрометеиздат, 1968. – 538с.
2. Туляганов А.Х, Салимова Б.Д. Автомобиль йўлларидаги сув ўтказувчи иншоотларни лойihalашда сув ва сел тошқинларининг тавсифларини хисоблаш. Тошкент, “Iqtisod–Moliya”, 2016.–156 б.
3. Международные экономические отношения /Под ред. Хасбулатова Р.И. М.: Новости, 1991.Т.1.
4. Пейро М. Международные экономические, валютно-финансовое отношения. - М.: Прогресс-Универс, 1994.